ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

AMINOVA DILNOZA
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi 7

QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida 11

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati 14

QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri 17

BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba 22

MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini 27

SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) 35

ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin 38

ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 47

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri 49

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) 52

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей 55

DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi 58

TA’LIM

МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА
Современные методы преподавания русского языка 62

ABDUG‘ANIYEV BURHON
Badiiy asar tilining o‘ziga xosligi hamda jozibasi 65

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY ASAR TILINING O‘ZIGA XOSLIGI HAMDA JOZIBASI

Abdug‘aniyev Burhon,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahurat markazi
Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi

Badiiy asar tili o‘ziga xos murakkab butunlik hisoblanib, lingvistik tarkibi rang-barang, turli tuman elementlarni (lingvistik birliklarni) o‘zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham tilshunoslikning asosiy manbayi adabiyot, xususan badiiy adabiyotdir. Badiiy asar tilini qaysi tomonidan qarashimizga ko‘ra turlicha tahlil qilishimiz mumkin. Bu uning keng qirrali hodisa ekanligidan dalolatdir. Umuman olganda, barcha tahlillarni umumlashtirib, ikki asosiy yo‘nalishga bo‘lamiz. Bulardan birinchisi badiiy asar tilining mazmuniy tomoni bilan bog‘liq jihatlar; ikkinchisi esa badiiy asar tilining shakl jihati bilan bog‘liq tomonlar.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar matni (badiiy matn) va uning tadqiqi bilan juda ko‘p olimlar shug‘ullanishgan, tadqiqotlar olib borgan. Xususan, M.Yo‘ldoshev, T.Qurbonov, B.Umurqulov, S.Karimov, J.Lapasov kabi olimlar tomonidan chuqur ilmiy tahlilga tortilgan. Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev “Badiiy matnning lisoniy tahlili” nomli metodik qo‘llanmasida badiiy matn va uning mazmuniy elementlarini sinchkovlik bilan tahlilga tortadi. Chunonchi, olim badiiy matn tahlilini quyidagi struktura asosida amalga oshiradi:

Ko‘chimlar deyilganda «adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma’noda ishlatilishi»[1] nazarda tutiladi. So‘z ma’nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda voqe bo‘ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida batafsil o‘rganilgan[2]. Ko‘chimlar deyarli ko‘pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o‘rganilgan. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» qo‘llanmasida ko‘chimlar quyidagicha tasnif qilingan: «1. So‘z ma’nosining miqdoriy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis. 2. So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.» qolgan tasviriy vositalar mazkur ko‘chimlarning ko‘rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa − metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet − metonimiyaning; antifraza, sarkazm − ironiyaning; litota − meyozisning ko‘rinishlaridir»[3]. Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda ko‘chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o‘xshatish, chog‘ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmaslik kerak.

Metafora. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishiga *metafora* deyiladi. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda «istiora» deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi». Faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: odamning oyog‘i − stolning oyog‘i, odamning ko‘zi − uzukning ko‘zi, ko‘ylakning etagi − tog‘ning etagi kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo‘ladi. «Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, *ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars,*

[1] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энсклопедияси, 2001.
[2] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Metodik qo‘llanma –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. –B. 61.
[3] Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. -Б. 34.

boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda juda keng qo‘llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko‘zi o‘tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi». Metafora bilan o‘xshatish konstruktsiyaning o‘zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o‘zlarining fikrlarini aytib o‘tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o‘tiladi: 1. O‘xshatishda so‘zlar o‘z ma’nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so‘zlar doimo ko‘chma ma’noda bo‘ladi. 2. O‘xshatishda ikki komponent − o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo‘ladi. 3. O‘xshatishlarda kengayish imkoniyati ko‘p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi. 4. O‘xshatishda maxsus ko‘rsatkichlar bo‘ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o‘xshamoq va boshqalar[1]. Metaforalarda bunday ko‘rsatkichlar bo‘lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko‘rish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. O‘xshatish konstruktsiya. Bunda **Karim** − o‘xshatish subyekti, **tulki**-o‘xshatish etaloni, **ayyor**-o‘xshatish asosi, **-day** − o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi. Bu to‘liq o‘xshatish. Karim − tulki. Bu qisqargan o‘xshatish, chunki gapda o‘xshatish asosi (qaysi xususiyati o‘xshashligi) va ko‘rsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-yey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti[2]. Metaforalarga misollar: 1. Eshshak, bu nima qilganing? 2. Qamoqxonalarning «telegrafi» (gap tashuvchi, ayg‘oqchi) juda aniq ishlaydi. 3. − Ko‘ksiga pichoq sanchibdi, − dedi barak navbatchisi. − Battar bo‘lsin! Itga it o‘limi. Mahbuslar baribir uni tirik qo‘yishmasdi. 4. − Oshga pashsha tushdi, aka! − dedi qo‘rqa-pisa... «Devoriy gazeta» o‘lgur keldi. 5. Qishdan qolgan qarg‘alar. 6. Buqalamun bilan uchrashuv. (S.Ahmad) 7. Otabek bu cho‘ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi (A.Qodiriy). Ayrim manbalarda metaforalarning mazmuniy jihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: odatiy, jonlantirish va sinestetik metaforalar[3]. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san’atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «Jonlantirish − istioraning bir ko‘rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali paydo bo‘ladigan tasvir usulidir»[4]. «O‘zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his-tuyg‘ulari, so‘zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko‘chirilishi»ga[5] jonlantirish deyilishi ta’kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan:

Tashxis − shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She’riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she’riy parchada muallif «kuz»ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi:

Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinin tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma’yus va bezovta kuzni ko‘raman.
Uning qo‘shig‘ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida[6]. (A.Oripov)

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo‘lish ham jonlantirishning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa-buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi. Masalan: *Osmonga intilgan daraxtlar, ildizingiz yerdaligini bila turib, kelib-kelib sizni quchgan ko‘k bag‘rini tilasizmi? Har bahor yashillikka aldanganingizni hazon pallasida sezmaysizmi yo hammasini bila turib, hammasini seza turib shamol izniga bo‘ysunasiz, shitirlaysiz. Men ham shivirlayman... Sizga ingan shudring mening ko‘z yoshim... Bilaman, bor dardimni to‘kib solmasam ham voqifsiz ahvolimdan. Zotan, siz tirik xotirasiz. Bebosh yaproqlarning shivir-shiviri, mungli yomg‘irkuy, egilmachoq maysalar, injiq sham-*

[1] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Metodik qo‘llanma –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. –B. 61.

[2] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Metodik qo‘llanma –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. –B. 63.

[3] Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи. //ЎТА, 1973, №4.-5.34-37.

[4] Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. -Тошкент: ТДПУ, 2001. – Б 11.

[5] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энсклопедияси, 2001. – Б. 245.

[6] https://yuz.uz/uz/news/abadiy-sado

ol, chuchmo‘ma xo‘rsinig‘i, yuragimning ado bo‘lmas o‘kinchi, siz soddagina daraxtlarim va men egilishni eplolmagan asov g‘alayon − hammamiz yolg‘iz sog‘inch biian bog‘langanmiz. (Y.Akram)

Intoq − nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she’r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko‘p qo‘llaniladi. Intoq san’atidan masallarda aiohida maqsad biian foydalaniladi. Insonlarga xos ba’zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko‘rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida allegoriya deb ataladigan ko‘chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi[1]. Intoq − jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda «hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O‘quvchi esa asosiy e’tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya’ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori»[2].

Muxtor Xudoyqulovning «Sher bilan pashsha» deb nomlangan masalida ham ayrim insonlarga xos maqtanchoqlik, yolg‘on ishlatib bo‘lsa ham obro‘ topishga urinish illati obrazli ifodasini topgan: *Bir pashsha Sherning qulog‘iga bir zum qo‘ndi-yu, uchib ketdi. So‘ng ko‘ringanga maqtandi: - Biz Sher bilan juda yaqinmiz, ko‘p masalalarda u men bilan maslahatlashib turadi... Pashshalarga ishonmang!*

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa − tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko‘chma ma’no yuzaga keladi. Masalan: *Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og‘ir tush, og‘ir gap, og‘ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan *shirin, yengil, og‘ir* sifatlarida sinestetik metafora sodir bo‘lgan. Maza-ta’m ma’nosini bildiruvchi «shirin» va o‘lchovni ifodalovchi «yengil» so‘zlari «yoqimli» ma’nosida, «og‘ir» so‘zi esa «yoqimsiz» ma’nosida kelgan.

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik va bog‘liqlik asosida ma’no ko‘shishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o‘xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo‘lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o‘xshamagan) predmetlarning belgilari chog‘ishtiriladi»[3]. Masalan: *... yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo‘ladirgan ko‘ngilsiz gapni kechikkani yaxshi... Fuzuliyni yaxshilab o‘qush kerak.* (A.Qodiriy) Ushbu gapda muallif va uning asarlari o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanib «asar» muallif nomi bilan qayta nomlanyapti. Yoki: *Saroy tinch uyquda, tun yarim* (A.Qodiriy). Bu misolda «saroy» so‘zi orqali «saroydagi odamlar» ma’nosi ham ifodalangan. Metonimiyaning turli ko‘rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma’lumot olish mumkin. Shu o‘rinda bir mansurani havola qilmoqchimiz. Unda muallifning metonimik qayta nomlash usulidan mahorat bilan foydalanganiga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz:

Xemengueyni o‘qish
dedi buxorolik shoir. - Endi o‘qiyapman Jabron
Xalil, Folkner, Frishni.
O‘sha kuni uyga keldim. Yana kezib chiqdim o‘zim sevgan Ernst olamlarini.
To‘g‘ri ekan. Badga urishi mumkin ekan hatto
Xemenquey ham.
Agar o‘z erking ko‘rinsa juda uzoq. Ishonching darz ketsa.
Tuyulsa omonat, liqildoq.
Muomalaga o‘rgatar Xemenquey. Olijanob muomalaga. Biz esa tobora yiroqlashib boryapmiz bunday muomaladan. (I.G‘afurov)

Sinekdoxa deb butun bo‘lak munosabatiga asoslanuvchi ma’no ko‘chishiga aytiladi. Adabiyotlarda «ko‘plik o‘rnida birlik yoxud birlik o‘rnida ko‘plik shakllarini qo‘llash yo‘li bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin»ligi[4] aytilgan. *Daraxtlar sarg‘aydi, olma gulladi, qo‘limni kesib oldim* birikmalarida butunning nomi bilan bo‘lak; har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning qo‘li baland keldi kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta’minlash maqsadida foydalaniladi.

Kinoya deb «til birligini uning haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chim»ga[5] aytiladi. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta’sirchan ifodalar yaratishda qo‘llanilib kelingan. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa «ironiya» atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning antifraza (masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo‘li bilan inker qilish) hamda sarkazm (zaharxanda ta’na, istehzoli piching, shama) deb ataluvchi ko‘rinishlari farqlanadi. Mohir so‘z ustasi, xalqimizning ardoqli adibi

[1] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili // Metodik qo‘llanma –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. –B. 64.

[2] Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ., Ўзбек тили стилистикаси, Т., 1983. Б, 246.

[3] Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ., Ўзбек тили стилистикаси, Т., 1983. Б, 237.

[4] Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. -Тошкент: ТДПУ, 2001. -Б.24

[5] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати.-Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002.-Б. 49.

Abdulla Qahhor asarlarida kinoyaning nodir namunalarini uchratish mumkin. U «Mayiz yemagan xotin», «Adabiyot muallimi», «Nutq» kabi hajviy hikoya va felyetonlarida kinoyaning turli ko‘rinishlaridan foydalangan holda betakror obrazlar yaratgan. Masalan, adibning «Mayiz yemagan xotin» hikoyasidagi ironik bo‘yoqlarda tasvirlangan Mulla Norqo‘zi ana shunday obrazlardan hisoblanadi: «*Ayol kishi erkakka qo‘l berib so‘rashdimi, bas!.. Ro‘za tutgan kishi og‘zini chayqasa, suv tomog‘iga ketmasa hamki, ro‘zasi ochiladi − shu og‘iz chayqashdan bahra oladida! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o‘g‘li bir hovuch mayiz berganini o‘z ko‘zim biian ko‘rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo‘li − xo‘p yo‘l. O‘n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa ura bering. Paranji hayoning pardasi-da!*»

Perifraz deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Perifraz deb «narsa, hodisani o‘z nomi biian emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul biian ifodalash»ga aytiladi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday narsa-hodisa nomini boshqa ibora bilan atayverish kutilgan effektni bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom-ibora o‘rtasida mazmuniy yaqinlik bo‘lishi lozim.

Rezyume: Ushbu maqolada ma’no ko‘ch turlari tahlili xususida fikr yurtildi. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarga murojaatlar qilindi. Ularning xos jihatlari e’tirof qilindi.

Summary: This article discusses the analysis of types of semantic shifts. References were made to studies conducted in this field, and their distinctive features were acknowledged.

Резюме: В данной статье рассматривается анализ типов семантических сдвигов. Были сделаны ссылки на исследования, проведенные в этой области, и отмечены их отличительные особенности.